



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALAR VA INTERAKTIV DASTURLARNING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Yusupova Mushtariy Ubaydulla qizi

Ohangaron shahar politexnikumi o'qituvchisi

Umirzakova Maxliyo Abdimuminovna

Ohangaron shahar politexnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lismi raqamli texnologiyalar va interaktiv dasturlardan samarali foydalanishning metodik yondashuvlari, pedagogik afzallikkleri hamda amaliy yo'nalishlari chuqur tahlil etiladi. Raqamli vositalarning dars jarayonidagi o'rni, ularning ta'lismi sifati va samaradorligiga ta'siri, shuningdek, o'quvchilarda motivatsiyani oshirishdagi roli ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, interaktiv dasturlar, ta'lismi sifati, motivatsiya, zamonaviy pedagogika.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lismi raqamli transformatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotning barcha jabhalarida chuqur ildiz otganidek, ta'lismi sohasi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Ayniqsa, so'nggi yillarda global pandemiya sharoitida masofaviy ta'limging dolzarbligi, raqamli resurslardan foydalanish zarurati va pedagogik innovatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ehtiyoji yaqqol namoyon bo'ldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli texnologiyalar va interaktiv dasturlar hozirgi zamon ta'liming ajralmas tarkibiy qismiga aylangan [1].

Raqamli texnologiyalar nafaqat darslarni vizual, qulay va illyustrativ tarzda o'tkazish imkonini beradi, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni faollashtiradi, bilimlarni mustahkamlash, tekshirish va baholash jarayonini ham zamonaviylashtiradi. Interaktiv platformalar, elektron o'quv kurslari, test tizimlari, gamifikatsiya elementlari, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar — bularning barchasi ta'lismi sifatini oshirish, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va o'qituvchining mehnatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi o'quv jarayonining barcha bosqichlariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlarida ko'proq o'qituvchining og'zaki nutqi ustun bo'lsa, raqamli vositalar ishtirokidagi darslarda esa o'quvchi jarayonning markaziy figurasiiga aylanadi. Bu esa interfaollikni, faol ishtirokni, mustaqil izlanishni va vizual-estetik idrokni talab etadi. Aynan shu nuqtai nazardan, interaktiv dasturlar — Google Classroom, Moodle, Edmodo, Zoom, Microsoft Teams,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Canva, Kahoot, Quizlet, Wordwall, Padlet, Nearpod kabi vositalar pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilmoqda [2].

Masalan, Quizlet dasturi orqali o‘quvchilarga so‘z yodlash, atamalarni mustahkamlash, tezkor testlar tuzish imkoniyati mavjud. Bu orqali bilimlarni qiziqarli tarzda takrorlash va umumlashtirish mumkin. Wordwall esa didaktik o‘yinlar orqali o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, sinfdagi faollikni oshirish, guruhlararo raqobatni kuchaytirish uchun qulaydir. Microsoft Teams platformasida esa o‘quv materiallarini tizimli joylashtirish, darslarni onlayn olib borish, yozuvlarni saqlab qo‘yish, topshiriqlarni yuklash va reytinglar yuritish mumkin.

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda vizual idrok va eslab qolish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Video darslar, animatsiyalar, audio materiallar orqali har bir mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish mumkin. Ayniqsa, tabiiy fanlar, til o‘rganish va tarix fanlarida grafikalar, xronologik jadval, laboratoriya simulyatsiyalari, interaktiv xaritalar vositasida dars mazmuni real holatda tasvirlanadi. Masalan, biologiya fanida inson yurak faoliyatini 3D modellashtirish orqali ko‘rsatish yoki kimyo fanida molekulalar tuzilishini animatsion videolar orqali tushuntirish – bu an‘anaviy izohlardan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi [3].

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonining monitoringi, baholash, shaxsiy yondashuv imkoniyatlari ham kengayadi. Masalan, masofaviy platformalarda avtomatik test natijalari, qatnashuv statistikasi, faoliyat grafigi, individual tavsiyalar tizimi mavjud. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining yutuq va kamchiliklarini kuzatish, u bilan individual ishslash imkonini beradi.

Interaktiv dasturlarning yana bir muhim afzalligi — bu o‘quvchini dars jarayoniga jalb etish, uni tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdir. Bu vositalar orqali savol-javoblar, mini-loyihalar, o‘yinli topshiriqlar, guruqli munozaralar, “fikrlar devori” kabi faol metodlarni tadbiq etish mumkin. Masalan, Padlet orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini real vaqtida yozib boradilar, jamoadoshlarining izohlariga baho beradilar, muhokamalar yuritadilar. Bu esa nafaqat bilishni, balki tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Biroq, ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy qilishda ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, bu — texnik infratuzilma, internet tezligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi, dasturlardan foydalanishdagi psixologik to‘siqlar. Shu bois, pedagoglarni zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga o‘rgatish, ular uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, doimiy o‘quv seminarlarini tashkil qilish juda muhimdir. Raqamli texnologiyalar faqat vosita bo‘lib, ularning pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llanilishi dars samaradorligini oshiradi [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va interaktiv dasturlar bugungi ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ular orqali darslar qiziqarli, jonli, individuallashtirilgan va yuqori darajadagi bilimlarni egallahsha yo‘naltirilgan tarzda tashkil etiladi. O‘quvchilarda mustaqil izlanish, o‘zini baholash, estetik idrok va muloqot





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘qituvchiga esa turli didaktik yondashuvlarni sintez qilish, natijalarni kuzatish va boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu texnologiyalarni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq, pedagogik nuqtai nazardan foydalanish esa o‘quv jarayonining sifatli va zamonaviy bo‘lishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Халилова, Д.Ш. Рақамли таълим технологиялари: назарий ва амалий масалалар. – Тошкент: “Innovatsiya ziyo”, 2022. – 176 б.
2. Абдуллаева, З.Б. Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш имкониятлари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021. – 143 б.
3. Musayev, U. Digital Pedagogy and E-learning Systems in the Modern Education Sphere // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2023. – Vol. 5, No. 2. – P. 45–52.
4. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: AU Press, 2008. – 472 p.

